

## ZILZILADA AHOLINI TO'G'RI HARAKAT QILISHGA TAYYORLASH MASALASI

*Bozorov Umidjon Negboevich*

*Navoiy viloyati FVB hayot faoliyati xavfsizligini  
o'qitish markazi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Tabiiy ofatlar ichida inson kuchi etmaydiganlaridan biri zilzila hisoblanadi. Markaziy Osiyo eng ko'p zilzilalar sodir bo'ladigan hudud hisoblanadi. Zilzilaning chuqurligi qancha ko'p bo'lsa, u shuncha ko'p uzoq masofaga tarqaladi. Maqolada zilzila sodir bo'lganda aholini to'g'ri harakat qilishga tayyorlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** favqulodda vaziyat, zilzila, guruh, mashg'ulot, fuqaro muhofazasi, harakat qilish.

**Аннотация:** В статье даны рекомендации по подготовке населения к правильным действиям в случае землетрясения.

**Ключевые слова:** чрезвычайная ситуация, землетрясение, группа, подготовка, гражданская защита, акция.

**Abstract:** The article provides recommendations on how to prepare the population for proper action in the event of an earthquake.

**Key words:** emergency, earthquake, group, training, civil protection, action.

### KIRISH

Butun dunyo bo'yicha avariya va halokatlarning oldini olish, aholini bunday vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarga qaramasdan favqulodda vaziyatlar soni va ularda jabrlanganlar soni kamayib qolgani yo'q. Tabiiy ofatlar ichida inson kuchi etmaydiganlaridan biri zilzila hisoblanadi. Markaziy Osiyo eng ko'p zilzilalar sodir bo'ladigan hudud hisoblanadi. Zilzilaning chuqurligi qancha ko'p bo'lsa, u shuncha ko'p uzoq masofaga tarqaladi. Bu erlarda bo'ladigan zilzilalarning chuqurligi 250-280 kilometrgacha bo'lishi Seysmologiya instituti mutaxassis xodimlari tomonidan aniqlangan. Seysmik xavfli hududlarga ega bo'lgan har bir davlatda seysmograflar bilan jihozlangan seysmostansiyalar tashkil etilgan. Jumladan, bunday seysmostansiyalar tarmog'i O'zbekistonda ham mavjud. Har bir stansiyada uchta seysmograf o'rnatilgan bo'lib, ulardan ikkitasi o'zaro perpendikulyar gorizontal yo'nalishdagi va uchinchi vertikal yo'nalishdagi tebranishlarni qayd qiladi. Aksincha, vaqt va joy tanlamaydigan favqulodda vaziyatlar kattalardan tashqari bolalarni ham o'z domiga tortmoqda. YUqoridagilardan kelib chiqib hozirgi kunda butun dunyoda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash axolini va yosh avlodni tayorlab kelinmoqda. Bizning respublikamizda ham

aholi va maktablarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha bilim va ko'nikma paydo qilish ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'quv dasturlariga "Hayot xavfsizligi asoslari" fani kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan BMT Taraqqiyot Dasturi, Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, "YUnisef" bolalar fondi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda turli loyihalar doirasida bir qancha samarali ishlari amalga oshirilgan.

### МУХОКАМА VA NATIJALAR

Xususan, mahalla aholisi, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va maktab o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash bo'yicha rejalar, qo'llanmalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan. Ulardan biri bolalarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi "Oilaning favqulodda vaziyatga tayyorlanish rejasi" hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu reja nafaqat o'quvchi, balki, ota-onalarning ham favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimlari oshishiga, tabiiy ofat qarshisida ojiz qolmasliklariga xizmat qiladi. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarimizda Fuqaro muhofazasi bo'yicha mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, darsni qiziqarli olib borish, har bir bilim oluvchining dars davomida faol ishtirokini amalga oshirish maqsadida turli pedogogik texnologiyalar, interfaol usullardan unumli foydalanib kelinmoqda. SHunday pedogogik texnologiyalardan biri guruhlar bilan ishlash texnologiyasi bo'lib, bunda ishlash jarayonini 4 ta bosqichga ajratib quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichida o'qituvchi asosan quyidagilarga aniqlik kiritadi;

-avvalo guruhlar bilan ishlash texnologiyasi nima uchun tanlanganligi, uni qanday amalga oshirish lozimligi, amalga oshirish uchun talabalarning tayyorgarlik darajasi aniqlanadi;

- mashg'ulot maqsadini o'z oldiga qo'yadi va ko'zlangan natijalarni rejalashtiradi;

-o'quv mashg'ulotida foydalaniladigan model tanlanadi. Eng yaxshi model bu-o'quv guruhini vazifa sharti bilan tanishtirish, o'yinni kichik guruhlarda individual, so'ngra birgalikda tashkil etish hamda guruh natijalarini prezentatsiya qilish va birgalikda hulosa qilishdan iborat;

-guruhlarining ish joylarini tanlash va tayyorlash. Guruhlar bir-biriga halal bermasliklari uchun alohida-alohida (guruh-guruh qilib) joylashtiriladi;

-topshiriqni tanlash va uni aniq ifoda qilish. Buning uchun mashg'ulot maqsadiga, bilim olayotganlarning bilim darajasiga mos keluvchi bir xilda yoki differensiallangan (turli) topshiriqlar ishlab chiqiladi;

-o'quv tarqatma materiallari va yo'riqnomalarni tayyorlash.

-guruh a'zolarini birgalikda faol ishlashga tayyorlash. Buning uchun guruhlariga bo'layotganda bir - biriga xayrihoh bo'lgan talabalar tanlab olinsa, ularning birgalikda

samarali va ijodiy ishlashlari ta'minlanadi. Har bir guruh a'zosi guruh bilan ishlash qoidalarini bilishlari va ularga amal qilishlari lozim. SHu o'rinda guruh bilan ishlash qoidalarini eslatib o'tamiz. Har bir talaba o'rtoqlarini tinglashi, ularning fikriga xayrihohlik bilan xushmuomola bo'lishi zarur. Guruhning har bir a'zosi topshirilgan vazifaga javobgarlik ruxida, faol ishtirok etishi lozim. Har bir a'zo bir biridan kerak bo'lganda yordam so'rashi, yonidagilarga yordam berishi, prezentatsiya materiali tayyorlanayotganda ishtirok etishi zarur.

Er yuzida sodir bo'lgan zilzilalarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, ko'plab kishilarni qurbon bo'lishi, jabrlanish holatlari sodir bo'lganining guvohi bo'lamiz. Masalan, 2010 yildagi Gaiti zilzilasi natijasida 200 ming nafar kishi qurbon bo'lgan, 311 kishi jaroxatlangan, 2008 yildagi Xitoyning Sichuan zilzilasi esa 70 ming kishi o'lgan, 300 ming kishi jaroxatlangan.

Korxonalarda zilzilani keltiradigan talofatlarini kamaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

-birinchidan aholini zilzila vaqtida o'zini muhofaza qilish usullariga, to'g'ri harakatlanishga o'rgatish;

-korxonada imoratlarining zilzilabardoshligini kamayishiga yo'l qo'ymaslik, zilzilabardoshligi kamaygan imoratlarning mustaxkamligini oshirish chora-tadbirlarini kuchaytirish;

-korxonalarda turli FV lar, jumladan, zilzilalar yuz berganda bajariladigan harakatlarni rejalashtirish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

-korxonalarda aloqa va habar berish tizimini ish xolatida saqlash;

-evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish;

-korxonalarni barqaror ishlashini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

Korxonalarda zilzila keltiradigan talofatlarni bartaraf etish tadbirlari.

- ishchi xodimlarni zilzila to'g'risida ogohlantirish;

-ishchi-xodimlarni imoratdan tashqariga evakuatsiya qilish;

-zilzila keltirgan talofatlarini zudlik bilan o'rganib chiqish;

-korxonada ishlab chiqilgan FV larning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasiga aniqlik kiritish va unda rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash;

-FM tuzilmalarini shay holatga keltirish;

-jabrlanganlarni xavfsiz xududga olib chiqish va birinchi yordam ko'rsatishni tashkillashtirish;

-yuz bergan yong'inlarni bartaraf etish tadbirlarini tashkillashtirish;

-jabrlanganlarni tibbiy muassasalarga yuborishni tashkillashtirish;

-korxonadagi qo'riqlash ishlarini, dispetcherlar ishini kuchaytirish;

-zilzila keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ikkilamchi oqibatlarining oldini olish tadbirlarini amalga oshirish.

Zilzila vaqtida aholining harakati.

- ko'p qavatli uyning birinchi qavatida yoki pishiq g'ishtli, paxsali uydagilarning er qimirlay boshlaganda zudlik bilan binodan tashqariga chiqishlari;

-yuqori qavatlardagilarning vahimaga tushmasdan, tashqariga chiqishga harakat qilmasliklari;

-liftdan foydalanmaslik, zinapoyalarning mustahkamligiga ishonch hosil qilgandan so'ng ulardan foydalanish;

-ko'chaga chiqqandan so'ng elektr tarmog'i, gaz trubalari va baland imoratlardan uzoqroqda, ochiq joyda turishga harakat qilish;

-yuqori qavatdagilarning, xonaning ichki burchaklari, ichki devorlar yoni, eshiklar oralig'i kabi xavfsiz joylarni egallashlari;

-ko'chadagilarning osilgan balkonlardan, karniz, uzilgan simlardan uzoqroqda turishlari;

- magazin, kinoteatr, vokzal kabi odamlar ko'p yig'iladigan joydagilarning osilib turgan lyustra, ventilyator, reklama taxtachalaridan uzoqroq turishlari;

-avtomobil ichidagilarning mashinani to'xtatib undan tushmasliklari, jabrlanganlarga yordam berishga tayyor turishlari lozim.

### **XULOSA**

Kichik guruhlar javoblarini tayyorlab bo'lganlaridan so'ng, bir birlari tayyorlagan materiallar bilan tanishadilar, guruh prezentatsiyasiga tayyorlanadilar va prezentatsiya qiluvchi talabani guruh a'zolari tanlaydilar. Guruhlarning javoblari tinglanadi. Javoblar boshqa guruh a'zolari tomonidan to'ldirishlariga ruxsat beriladi. O'qituvchi tomonidan yutuq va kamchiliklar ochib beriladi, baholanadi hamda g'olib guruh e'lon qilinadi. O'qituvchi dars yakunida ko'zlangan maqsadga qay darajada erishilganligi to'g'risida xulosa qiladi.

O'ylaymizki, mashg'ulotlar davomida guruhlar bilan ishlash texnologiyasining tadbiiq etilishi, talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini hamda ularning faolligini oshirishda yaqindan yordam beradi.

### **Adabiyotlar:**

1.FMI jamoasi. Aholi va hudularni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. – T.: 2013.

2.Xo'jaev N.X., Xodiev B.YU., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Fan.2002.

3.Xasanboeva O.,Jamilova N. Pedagogika fanini o'kitish metodikasi. O'quv qo'llanma.-T.: Fan. 2008.

4. Abdullaeva G. // To'g'ri va aniq harakat qilish- havfsizlik garovi!!! "Zilzilalarni monitoring qilishning istiqbollari va rivojlantirish asoslari" sbornik nauchno-prakticheskoy konferensii- Toshkent, –2018. Str 94.

5. Abidova F. “Aholini favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayèrlash tizimini samaradorligini oshirish yo‘llari.” "Zilzilalarni monitoring qilishning istiqbollari va rivojlantirish asoslari" mavzusidailmiy-amaliy seminar to‘plami.-Toshkent, –2018. str. 89.

3.Хасанбоева О,Жамилова Н. Педагогика фанини ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма.-Т.: Фан. 2008.

4. Абдуллаева Г. // Тўғри ва аниқ ҳаракат қилиш- ҳавфсизлик гарови!!! "Зилзилаларни мониторинг қилишнинг истикболлари ва ривожлантириш асослари" сборник научно-практической конференции- Тошкент, –2018. Стр 94.

5. Абидова Ф. “Аҳолини фавқулдда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш тизimini самарадорлигини ошириш йўллари.” "Зилзилаларни мониторинг қилишнинг истикболлари ва ривожлантириш асослари" мавзусидаилмий-амалий семинар тўплами.-Тошкент, –2018. стр. 89.